



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

5. “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha strategiya (2020–2030 yillar)” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 23-oktabr
6. Karimov A., Xolmatov B. *Iqtisodiy klasterlar va ularning rivojlanish mexanizmlari*. Toshkent, 2020.
7. OECD. *Innovation Clusters and Regional Development*. Paris, 2019.

UDK: 338.48:658.01(575.1)

**O‘ZBEKISTONDA TURISTIK MAJMUALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING
NAZARIY JIHATLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ
ТУРИСТИЧЕСКИХ КОМПЛЕКСОВ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**THEORETICAL ASPECTS OF MANAGING THE ACTIVITIES OF TOURIST
COMPLEXES IN UZBEKISTAN**

Xomidov Qaxxorali Qurbonali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID - 0000-0002-5768-6010

Annotatsiya

Ushbu maqolada postindustrial jamiyatga o‘tishdan bugungi kungacha bo‘lgan o‘zgarishlar tahlili iqtisodiy tizimlarning sanoatlashgan iqtisodiyot, xizmatlar iqtisodiyoti hamda o‘zgarishlar iqtisodiyotiga o‘tib borayotgani, postindustrial jamiyat iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari, N.Leyperning turizm tizimi modeli tarkibi va “Turistik majmua” tushunchasiga konseptual yondashuvlarning mazmuni hamda faoliyatini boshqarishning nazariy-uslubiy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. postindustrial jamiyat, turizm sohasi, turistik majmua, boshqaruv yondashuvlari, turizm xizmatlari, turistik majmualar boshqaruvi, rivojlanish tendensiyalari, rivojlanish qonuniyatlari.

В данной статье анализ изменений от перехода к постиндустриальному обществу до наших дней основан на том факте, что экономические системы движутся в направлении индустриализированной экономики, экономики услуг и экономики изменений, этапов развития экономики постиндустриального общества и т.д. Структура проанализированы модель туристической системы Лейпера и содержание концептуальных подходов к понятию "туристический комплекс" и теоретико-методологические аспекты управления его деятельностью.

Ключевые слова. постиндустриальное общество, индустрия туризма, туристический комплекс, подходы к управлению, туристические услуги, управление туристическими комплексами, тенденции развития, законы развития.

In this article, the analysis of changes from the transition to post-industrial society to the present day is based on the fact that economic systems are moving towards an industrialized economy, the economy of services and the economy of changes, stages of development of the economy of post-industrial society, N. The structure of the model of the tourism system of leyper and the content of conceptual approaches to the concept of a "tourist complex" and theoretical-methodological aspects of the management of its activities are analyzed.

Keywords. post-industrial society, tourism industry, tourist complex, management approaches, tourism services, management of tourist complexes, development trends, development laws.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar iqtisodiy munosabatlar doirasida mavjud va asoslangan qonuniyatlar insoniyatning taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda ma’lum bir darajada o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ana shunday tendensiyalarning asosiy qismi moddiy ishlab chiqarish sohasining xizmatlashuv tomon yuz tutayotganligi bilan izohlanadi. XX asrning oxiridan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan davrda jahon miqyosida moddiy ishlab chiqarish sohalari insoniyatning global darajadagi axborot kommunikatsiya sohasidagi rivojlanishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar ta’sirida o‘z faoliyatini xizmatlar sohasi bilan birlashtirgan holda olib borishga harakat qilmoqda. Bunday o‘zgarishlar ushbu sohada faoliyat olib borayotgan turli hajmdagi korxonalarining raqobat ustunligini ta’minlayotganligi korxonalar faoliyatida xizmatlashuv darajasining ortib borishiga olib kelmoqda.

Turizm sohasini rivojlantirish va boshqarish mexanizmlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda turizmni rivojlantirish bo‘yicha boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha turli xil qarashlar va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Turizm xizmatlari bozorida talab va taklif o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash hamda turistik mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, biz, ushbu yo‘nalishda ba’zi mualliflarning fikr va mulohazalarini o‘rganib, ularning ilmiy yondashuvlarini umumlashtirib, turizm sohasida boshqaruv samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, vositalari va usullari bo‘yicha fikrlarimizni qisqacha bayon qilamiz.

O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlarini ko‘plab iqtisodchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bulardan iqtisodchi olim M.T.Alimova o‘zining “Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari” nomli doktorlik dissertatsiyasida turizm bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, boshqaruv konsepsiyasi orqali turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy turistik klasterlarni shakllantirish bo‘yicha ilmiy mulohazalarni keltiradi[1].

Shuningdek, MDH olimlari S.G.Surkov va V.I.Krivoruchkolarning “Международный туризм в России: проблемы развития и управления” nomli asarida Rossiyada xalqaro turizm bozori rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va integratsion jarayonlar, turizm industriyasi subyektlari faoliyati, xalqaro turizmni tartibga solish mexanizmlari, xalqaro turistik siyosatning maqsadlari, vazifalari va ustuvor boshqaruv yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar[2].


Mualliflar o‘z asarida xalqaro turizm rivojlanishining omillari, globallashtirish jarayonlarining turistik majmualar boshqaruv faoliyatiga ta’siri, turizm destinatsiyasi rivojlanish xususiyatlariga alohida e’tibor qaratganlar. M.M.Ramadonova va M.A.Makarchenkolarning “Государственное регулирование туристической деятельности” nomli asarida turistik faoliyatni tartibga solish usullari, vositalari va shakllari yoritib berilgan. Bunda turizm sohasini boshqarishda davlatning rolga ham alohida e’tibor qaratilgan. Biroq asarda turistik faoliyatni boshqaruv usullari va vositalari tasnifi ishlab chiqilmagan[3].

Maqolada turistik majmualarni shakllantirish va boshqarish tahlili amalga oshirilib, mazkur yo‘nalish bo‘yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining fikrlariga tayangan holda dialektik va tizimli yondashuv, qiyoslash, empirik tadqiqot hamda qiyosiy tahlil kabi usullari orqali turistik majmualar faoliyatini boshqarishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Turizm sohasi mohiyat jihatidan bevosita xizmatlar sohasi tarkibiga kirsa-da, soha faoliyatining asosiy qismi bevosita moddiy ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatiga bog‘liq. Shu bilan birga turizm sohasining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari singari juda katta hajmdagi moddiy vositalarni talab qilmasligi hamda faoliyatning tabiiy resurslar mavjudligi bilan bog‘liqligi mamlakatimizda sohani qisqa vaqtda jadal rivojlantirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. 2016 yildan boshlab mamlakat darajasida turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar ham sohaning mamlakat taraqqiyotini jadal rivojlantirishdagi “o‘sish” nuqtalaridan biri bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Postindustrial jamiyatga o‘tishdan bugungi kungacha bo‘lgan o‘zgarishlar tahlili iqtisodiy tizimlarning sanoatlashgan iqtisodiyot, xizmatlar iqtisodiyoti hamda o‘zgarishlar iqtisodiyotiga o‘tib borishini ko‘rsatadi (1-rasm).

Fikrimizcha, iqtisodiy o‘zgarishlarning ko‘rib o‘tilayotgan ketma-ketlikda rivojlanishining asosiy omili sifatida mahsulot yoki xizmatlarning individuallashtirishini ko‘rsatib o‘tish to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki taraqqiyot bosqichlarida kommodizatsiya jarayonining zaiflashib borishi va, bir vaqtning o‘zida kastomizatsiya jarayonining kuchayib borishi kuzatiladi. Bu esa, jamiyatda yaratilayotgan mahsulot va xizmatlarning iste‘molchilarning xohish (istak)laridan kelib chiqib, individuallashtirish borishini ko‘rsatadi.



1-rasm. Postindustrial jamiyat iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari [4]

Yuqoridagi o‘zgarishlar moddiy ishlab chiqarish sohalariga qaraganda xizmatlar sohasida birmuncha yuqori ekanligini, shu bilan birga “standartlashuvdan qochish” xizmatlar sohasida avvaldan mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Turizm xizmatlar sohasining bugungi kunda eng jadal rivojlanayotgan va yuz berayotgan o‘zgarishlarga tez moslasha oladigan tarmog‘i bo‘lganligi hamda tarmoqni hali o‘zlashtirilmagan tabiiy-iqtisodiy resurslar negizida qisqa vaqtda kengaytirish imkoniyati mavjudligini hisobga olgan holda mamlakatimizda ushbu tarmoqni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Turizm sohasining rivojlanishi ko‘p jihatdan, aytib o‘tilganidek, mavjud tabiiy-iqtisodiy resurslarning mavjudligi va ushbu resurslarning iqtisodiy faoliyatga kiritilganligiga bog‘liq. Iqtisodiy terminologiyada turistlar, ya‘ni xizmatlar iste‘molchilari tomonidan tanlanadigan va ushbu hududda yaratilgan xizmatlarni iste‘mol qilinadigan hudud “turistik destinatsiya” deb ataladi[5].

Turistik nuqtai nazardan xizmatlarni yaratish, turistik majmualardan faoliyatda samarali foydalanish va boshqarish ularning raqobat ustunliklarini belgilaydi va, bu o‘z navbatida, turistik faoliyat samaradorligini belgilaydi.

Ayrim tadqiqotchilarning talqinida “majmua” turistlarni ehtiyoji va talablariga javob beruvchi bir qator xizmatlar to‘plamini taklif etuvchi hamda aniq jalb eruvchanlik darajasiga ega bo‘lgan geografik hudud sifatida qaraladi [7].

Bir qator tadqiqotchilar tomonidan esa “turistik majmua” tushunchasi esa turistlar tomonidan borishga harakat qiluvchi, turistik oqimni shakllantiruvchi joy, qandaydir lokatsiya (hudud, makon, akvatoriya) sifatida tushuncha beriladi. Shu mazmunda turistik majmua turist tomonidan yashash manzilini tark etgan holda ushbu makonda yangi hissiyotlar va o‘ziga xos qoniqishlarni olishni rejalashtirgan joy sifatida qaraladi.

Ushbu mantiqqa suyangan va turistlarni qabul qiluvchi majmuani boshqaruvchi pozitsiyasida turgan holda turistik majmuani keng mehmondo‘stlik xizmatlarini yaratuvchi va iste‘molga taklif etuvchi majmua sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

E.Louzning yondashuvlaridan tashqari turistik majmua tushunchasiga A.Lyu, V.Framke, J.Saarinen va M.Kilanenlar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar ham mavjud[8]. Ushbu tadqiqotchilarning “turistik majmua” tushunchasiga konseptual yondashuvlarini o‘rganib chiqqan holda konseptual yondashuvlarni to‘rt asosiy yo‘nalishda ajratib chiqish mumkin.

1. Iqtisodiy-geografik jihatdan yo‘naltirilgan konseptual yondashuv. Ushbu yo‘nalishdagi yondashuvga K.Metelka, S.Medlik, R.Batler, N.Leyper va R.Meytlend kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlarini kiritish mumkin.

2. Marketing-boshqaruviga yo‘naltirilgan konseptual yondashuv. Ushbu yo‘nalishdagi yondashuvga xorijlik olimlardan F.Kotler, J.Bouen, J.Meykenz, D.Buxalis va K.Gunnlarning yondashuvlari tegishli.

3. Mijozga yo‘naltirilgan konseptual yondashuv. Ushbu konseptual yondashuvga xizmatlar marketingi, strategiyasi hamda marketing aloqalariga tegishli qarashlarni ifodalovchi J.Moysander, A.Valtonen, K.Grenroos, M.Bitner, J.Gorovits va L.Mossberglarning tadqiqotlari kiradi.

4. Ijtimoiy-madaniy konseptual yondashuv. Bu yondashuvlarning mazmuni J.Dyumazedye, N.Kolodiy, J.Urri va R.Lashlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yondashuvlarning mazmuni 1-jadvaldagi talqinlar orqali aniqroq ko‘rsatib o‘tiladi.

Turistik majmua tushunchasi uzoq davr davomida shakllanganligi hamda hozirgi kunda ham tadqiq etilayotganligi sababli ushbu tushuncha mazmuniga yuqoridagi yondashuvlardan farqlanuvchi yana bir qator yondashuvlar mavjud. Shu nuqtai nazardan ayrim tadqiqotlarda “turistik majmua” konsepsiyasiga yondashuvlarni an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarga ajratiladi.

1-jadval

“Turistik majmua” tushunchasiga konseptual yondashuvlarning mazmuni

Konseptual yondashuvlar	Tadqiqotchilar	Konseptual yondashuvlar mazmuni
Iqtisodiy-geografik jihatdan yo‘naltirilgan konseptual yondashuv	N.Leyper	Turistik majmua bu – turistlar tomonidan hududning bir yoki bir necha belgi va xususiyatlari bo‘yicha turistik tajriba olish uchun ma’lum bir vaqtga to‘xtovchi joy.
	K.Metelka	Turistik majmua – inson sayohat qiluvchi “geografik joy”, “turistik bozorning hududi”.
	S.Medlik	Turistik majmua – turistlar tomonidan tashrif buyuriladigan jalb eruvchanlik xususiyati, turistik xizmatlar ko‘rsatish infratuzilmasi va geografik jihatdan borish chegaralanmaganlik kabi asosiy omil belgilariga ega bo‘lgan hudud.
	R.Meytlend	Turistik majmua – turistlar tashrif buyuruvchi geografik chegaralarga ega bo‘lgan alohida hudud.
Marketing-boshqaruviga yo‘naltirilgan konseptual yondashuv	F.Kotler, J.Bouen, J.Meykenz	Turistik majmua – ko‘p bosqichli tarkibiy tuzilish: asosiy, yondosh va qo‘shimcha tuzilishga ega bo‘lgan moddiy yoki nomoddiy elementlardan tashkil topgan turistik mahsulot.
	D.Buxalis	Turistik majmua bu – iste‘molchiga umumlashgan tajribani o‘zlashtirish imkonini beruvchi turistik mahsulot.
Mijozga yo‘naltirilgan konseptual yondashuv	J.Moysander, A.Valtonen	Turistik majmua imij, joy, xizmatlar va mehmondo‘stlik sohasi kabi mijozga yo‘naltirilgan kengaytirilgan turistik mahsulotni ifodalovchi xizmatlar tizimi. Unda mijoz, bir tomondan, tadbirlarda ishtirok etuvchi nafaol iste‘molchi sifatida, ikkinchi

		tomondan, turistik mahsulotni iste'mol qilish uchun iqtisodiy jihatdan optimal qaror qabul qiluvchi faol subyekt sifatida qaraladi.
Ijtimoiy-madaniy konseptual yondashuv	J.Dyumazedye	Turistik majmua – jamiyatdagi ne'mat hisoblanib, “ishlab chiqarish” iqtisodiyoti o‘rniga “xizmatlar” iqtisodiyotining kelishi bilan rivojlanuvchi muhit.
	N.Kolodiy	Turistik majmua xizmatlar sohasining asosiy institutlari (universitetlar, axborot, fan, madaniyat, tibbiyot) ishtirokida nazariy va amaliy jihatdan shakllanuvchi qadriyatlar va tajribalar o‘rganiladigan joy.
	J.Urri	Turistik majmua – global bozorda raqobat muhitida foydalaniluvchi, turist tomonidan tanlanadigan va uning xohish istaklari doirasida foydalaniladigan turistik mahsulot.

An’anaviy konsepsiyada turistik majmua mijozlar (iste'molchilar)ning o‘z ta’til va dam olishlarini o‘tkazadigan joy sifatida talqin qilinib, uning o‘ziga xos elementlari sifatida joy (turistik hudud va uning tarkibi), odamlar (iste'molchilarning demografik xususiyatlari, motivatsiya va hududning reytingi) va ta’til (ta’til davridagi turistlarning faoliyati) ajratiladi.

“Turistik majmua” tushunchasiga turli konseptual yondashuvlarni o‘rganish asosida ushbu tushunchaning ko‘p qirraligi va uning mazmunini qanday maqsadda foydalanilishidan kelib chiqqan holda belgilash lozimligi aniqlandi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida “turistik majmua” tushunchasi aniq chegaraga ega turistik resurs; milliy, hududiy va mahalliy darajada aniq amalga oshirish mexanizmi mavjud bo‘lgan yagona boshqaruv strategiyasiga ega tizim; ko‘p bosqichli kompleks turistik mahsulot, turistlar, tadbirkorlar va mahalliy boshqaruv tuzilmalarining murakkab o‘zaro munosabatlari natijasida foydalaniluvchi turistik resurs; faqatgina iste'mol qiymatiga ega bo‘lmasdan, turistik tajribani shakllantiruvchi turistik mahsulot kabi asosiy belgilarga ega bo‘lgan mahsulot, hudud, iste'mol qiymatiga ega qadriyat sifatida talqin etilishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида) // И.ф.д. дисс. – Самарқанд: СамИСИ, 2017. 25-26-б.
2. Сурков С.Г. Международный туризм в России: проблемы развития и управления / С.Г. Сурков, В.И. Криворучко. – М.: Советский спорт, 2009. – 214 с.
3. Рамадонова М.М., Макаренченко М.А. Государственное регулирование туристической деятельности // Альманах научных работ молодых ученых университета ИТМО. – 2016. – С. 211-213.
4. Pine, J. and Gilmore, J. (1999). The Experience Economy, Harvard Business School Press, Boston.
5. Гончарова Н.А. Формирование системы управления туристской дестинацией. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Санкт-Петербург: НОУ ВПО «БАТиП», 2014. –С. 17.
6. Морозов М.А., Морозова Н.С. Моделирование и прогнозирование развития туристских дестинаций. Сервис plus. 2014. Т. 8. №3. - С. 32-39.
7. угли Хомидов, Қ. Қ. (2024). Совершенствование институциональной базы системы государственного регулирования туристских комплексов. World of Scientific news in Science, 2(2), 262-269.
8. Homidov, K. (2023). Conceptual approaches to the formation of a model for the sustainable development of tourist complexes. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(7), 33-38.
9. Homidov, K. (2023). Organizational and economic foundations of the organization of tourist complexes in the development of tourism in the regions. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(7), 44-50.

10. Homidov Kakhkhorali Kurbonali ugli. (2023). Objective need for the formation and sustainable development of tourist complexes in the regions: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8151902>. IQRO , 4(2), 42–45.
11. Хомидов, К. (2023). О‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligi oshirish yo‘llari. *Economics and Innovative Technologies*, 11(3), 154-160.
12. Хомидов, Х. (2023). Худудларда туристик мажмуалар фаолиятини шакиллантириш ва тизимли бошқариш асосида худудлар туристик салохиятидан самарали фойдаланиш масалалари. " Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami., 412-415.
13. Хомидов, Қ.Қ.Ў.(2023). Организационно-экономический механизм развития туристических комплексов. In *Новые технологии в учебном процессе и производстве* (pp. 370-372).
14. Хомидов, Қ. Қ. (2023). Инновационные преимущества использования информационных технологий в туристической деятельности. In *современные вопросы естествознания и экономики* (pp. 421-424).

UDK:338.45

**OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING STRATEGIK SALOHİYATINI
BAHOLASHNING JARAYON VA TIZIMLI YONDASHUVLARI**

**ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ И СИСТЕМАТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ
СТРАТЕГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПИЩЕВОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**PROCESSUAL AND SYSTEMATIC APPROACHES TO ASSESSING THE STRATEGIC
COMPETENCE OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES**

Jo‘rayeva Nodiraxon Qurbonovna Farg‘ona davlat universiteti
Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrasi mudirasi i.f.f.d., dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashda qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlar – resurs, strukturaviy (funktional) va maqsadli yondashuvlar nazariy jihatdan yoritilgan. Korxonalar salohiyatining mohiyati, uni rivojlantirish omillari, boshqaruv tizimining o‘rni hamda strategik salohiyatni baholash mezonlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shuningdek, korxonalarining strategik rivojlanishida boshqaruv salohiyatining roli va strategiyani tanlashda matritsa yondashuvining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: strategik salohiyat, resurslar, boshqaruv tizimi, strategik rejalashtirish, korxonalar rivojlanishi, funktsional yondashuv.

В данной статье теоретически рассматриваются основные подходы, используемые при оценке стратегического потенциала предприятий пищевой промышленности – ресурсный, структурный (функциональный) и целевой подходы. Систематически анализируются сущность потенциала предприятия, факторы его развития, роль системы управления и критерии оценки стратегического потенциала. Также обосновывается роль управленческого потенциала в стратегическом развитии предприятий и важность матричного подхода при выборе стратегии.

Ключевые слова: стратегический потенциал, ресурсы, система управления, стратегическое планирование, развитие предприятия, функциональный подход.